



Received: February 14, 2026
Accepted: March 23, 2026
Available online: March 25, 2026

Muxammad Chutpulatov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTROPOTSENTRIZMGA ASOSLANGAN PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOSTATISTIK TAHLILI

ANNOTATSIYA

Maqollar, matallar, hikmatli so'z va aforizmlar kabi paremiologik birliklar har qanday lingvistik komponentning ajralmas qismi bo'lib, ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning tarixi, turmush tarzi, madaniyati va mentalitetini tushunish uchun bebaho vosita hisoblanadi. Ingliz tilidagi paremiologik birliklar ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar tomonidan dunyoning lisoniy tasvirini tushunishning yorqin namunasi bo'lib xizmat qilsa, o'zbek tilidagi paremiologik fond o'zbek xalqi milliy-madaniy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bir butun tuzilmadir.

Inson omiliga qaratilgan antropotsentrik jihatlar ingliz va o'zbek tilidagi paremiologik birliklarda ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklarda antropotsentrizmning ifodalanishini mazkur tillarning paremiologik fondi minimumi asosida lingvostatistik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilishdir.

Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklarning minimum fondi asosida qiyosiy, tavsifiy, lingvostatistik hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Paremiologik birliklarda inson obrazi, shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlar va mehnat faoliyatiga oid birliklar statistik jihatdan guruhlariga ajratildi.

Tadqiqot natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklarda antropotsentrizmning yuqori darajada namoyon bo'lishi aniqlandi. Har ikki tilda insonning axloqiy fazilatlarini, mehnatsevarligi, aql-zakovati, sabr-toqati va

Mukhammad Chutpulatov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: chutpulatovmukhammad@gmail.com
ORCID id: 0009-0006-8307-919X

LINGUOSTATISTICAL ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRISM-BASED PAREMIOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ABSTRACT

Paremiological units such as proverbs, sayings, wise expressions, and aphorisms constitute an integral part of any linguistic system and serve as invaluable resources for understanding the history, lifestyle, culture, and mentality of the people speaking a particular language. Paremiological units in English represent a vivid example of how English-speaking communities conceptualize the linguistic worldview, while the paremiological corpus of the Uzbek language forms a holistic structure embodying the national and cultural characteristics of the Uzbek people.

Anthropocentric features, focused on the human factor, hold significant importance in paremiological units of both English and Uzbek. The aim of this article is to conduct a comparative linguostatistical analysis of the expression of anthropocentrism in paremiological units of the English and Uzbek languages, based on the minimum paremiological corpus of these languages.

The study employs comparative, descriptive, linguostatistical, and semantic methods, relying on the minimum corpus of paremiological units in English and Uzbek. Units related to human imagery, personal qualities, social relations, and labor activity are statistically classified into distinct groups.

The results reveal a high degree of anthropocentrism in paremiological units of both languages. In both English and Uzbek, units associated with human moral qualities, diligence,

jamiyatdagi o'zni bilan bog'liq paremiologik birliklar yetakchi o'rin egallashi kuzatildi. Shu bilan birga, ingliz tilida pragmatizm va individuallik, o'zbek tilida esa jamoaviylik, oilaparvarlik va axloqiy tarbiya ustuvorligi statistik ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi.

Xulosa sifatida esa ingliz va o'zbek tillaridagi antropotsentrizmga asoslangan paremiologik birliklar xalq dunyoqarashi va mentalitetining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lishi qayd etildi. Xususan, ingliz va o'zbek tillarining paremiologik birliklarida antropotsentrizmning verballashuvi mavjudlik va borliq nuqtayi nazariga qarab o'xshashlik va farqlarga ega bo'lishi mumkin. Lingvostatistik tahlil ushbu tillar o'rtasidagi umumiy va milliy-madaniy farqlarni aniqlashda samarali usul ekanligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, paremiologik birlik, maqol, matal, xalq og'zaki ijodi, xalq donologi, antropotsentrizm, gender, milliy-madaniy jihat, dunyoning lisoniy tasviri.

intelligence, patience, and social role occupy a dominant position. At the same time, statistical findings indicate a prevalence of pragmatism and individualism in English, whereas collectivism, family orientation, and moral upbringing are more prominent in Uzbek.

In conclusion, anthropocentrism-based paremiological units in English and Uzbek serve as key indicators of the worldview and mentality of their respective peoples. In particular, the verbalization of anthropocentrism in paremiological units of these languages demonstrates both similarities and differences depending on perspectives of existence and reality. Linguostatistical analysis proves to be an effective method for identifying both universal patterns and national-cultural distinctions between the two languages.

Key words: paremiology, paremiological unit, proverb, saying, folklore, folk wisdom, anthropocentrism, gender, national-cultural aspect, linguistic worldview.

KIRISH

O'tgan asrning 30-yillarigacha tilshunoslikka doir tadqiqotlar asosan ikki – qiyosiy-tarixiy hamda sistem-strukturaviy paradigma doirasida olib borishga asoslangan. Mazkur davrda asosiy urg'u til tizimi, uning tarkibi va bir tildagi leksik, grammatik, stilistik hamda fonetik hodisalar alohida bir tizim sifatida mavjud bo'lishi hamda ma'lum bir tildagi til birliklarining boshqa tildagi ekvivalentlari bilan o'xshash va farqlanuvchi jihatlarni tahlil qilishga qaratiladi. 20-asrning 30-yillaridan boshlab "tilda inson" masalasi – antropotsentrizmni o'rganish alohida yo'nalish sifatida shakllana boshladi. So'nggi deyarli bir asr davomida umumiy tilshunoslik fani sohasida til va undan foydalanuvchi inson orasidagi bog'liqlikning turli xususiyatlarini o'rganuvchi pragmatika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, gender tilshunosligi kabi antropotsentrik yondashuvga asoslangan ko'plab tilshunoslik tarmoqlari paydo bo'ldi hamda ular hozirgacha muttasil ravishda rivojlanib, tadqiq etilmoqda. Til va inson masalasida tildan foydalanuvchi erkak va ayol jinsi vakillarining o'ziga xos jihatlari o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan sifatida shakllanib kelayotgan gender tilshunosligining asosiy obyekti sanaladi. Tilning leksik, grammatik, stilistik va fonetik qatlamlari birliklari turli jins vakillari tomonidan turlicha qo'llanilishi mumkin, ya'ni tilning deyarli barcha sohalari tizim sifatida tilning gender aspektida o'rganilishi mumkin [Kirilina, 2000; Karasik, 2002].

Gender tilshunosligi hozirgi kunda umumiy tilshunoslik fanining eng dolzarb va qiziqarli sohalaridan biri ekanligiga shubha yo'q. Bu sohadagi tadqiqotlar zamonaviy tillardan olingan materiallarga asoslanganligi bois ko'plab ilmiy ishlar ingliz va rus tillarida yozilgan. Ushbu tadqiqotlarning obyekti va mavzusi nafaqat ingliz va rus

tillarini, balki boshqa ko‘plab tillarni ham o‘z ichiga oladi, ammo bu ishlar uchun rasmiylashtirish tili odatda ingliz yoki rus tilidir.

Har bir tilda jamiyatning erkak va ayol qatlamlari – o‘sha tilda so‘zlashuvchilar tomonidan lingvistik foydalanishning umumiy va o‘ziga xos jihatlari mavjud. Bu o‘ziga xoslik, bir tomondan, universal, ikkinchi tomondan, milliy tilning o‘ziga xos xususiyatidir. Aynan shu oxirgi jihat ma‘lum bir tilda so‘zlashadigan ayollar va erkaklar nutqining gender xususiyatlarini belgilaydi. Gender tilshunosligining maqsadi qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarda gender nutqini o‘rganish, uni monolingualizm (ikki tillilik va ko‘p tillilik) asosida taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish orqali o‘rganishdan iboratdir.

Genderning ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga qaratilgan gender tadqiqotlari hozirgi kunda gumanitar va ijtimoiy fanlarda dolzarbdir. Gender tavsiflarining ijtimoiy jihatlari bo‘yicha ma‘lumotlarning muhokamalari va qo‘llanilishi tilshunoslik doirasidan tashqariga chiqdi va jamoatchilik tomonidan kundalik hayot faktlari sifatida qabul qilinmoqda. Masalan, 2017-yil 24-noyabrda Amerikaning “Washington Post” va “New York Post” gazetlari, shuningdek, boshqa OAVlari Associated Press agentligiga tayanib, Shvetsiya lyuteran cherkovi o‘z ruhoniylariga ibodatxonada diniy amallar bajarilayotganligida gender neytral tildan foydalanishni tavsiya etganligi haqidagi xabarni chop etdi (The Church of Sweden is urging its clergy to use gender neutral language when referring to the supreme deity, refraining from using terms like “Lord” and “He” in favor of the less specific “God”).

Bunday xabarlar shuni ko‘rsatadiki, genderni asoslangan tushunchalarni nomlash inson nutqi, sivilizatsiyasi va ijtimoiy birdamlikning rivojlanishi davrida boshlangan, qadimgi *Homo sapiens* nafaqat o‘zlarini o‘rab turgan makonni, balki ularni dunyoga keltirgan ayol va ularni dunyoga keltirgan erkakni ham ajratib ko‘rsatish uchun so‘zlarni ixtiro qilgan va qardoshlik rishtalarini ajratishga harakat qilgan. Insoniyat hayotining ushbu bosqichidan boshlab gender farqlash jarayonlari jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotiga integratsiyalashib, jadal rivojlanib bordi.

Gender tilshunosligining yangi ilmiy soha sifatida rivojlanishining bir qismi sifatida shakllanar ekan, dastlab ingliz tilshunosligida grammatik jins ko‘rsatkichi sifatida ishlatilgan “gender” tushunchasiga asoslangan tilning falsafiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlaridagi feministik tanqidi ushbu tushunchani boyitishga hissa qo‘shdi, uni jins kategoriyasi bilan belgilanadigan va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga o‘tkaziladigan shaxsning biologik xususiyatlaridan ajratib turdi. Ya‘ni, bu bosqichda “gender” biologik determinizmni yo‘q qiladigan va jinslar o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy tabiatini ta‘kidlaydigan, shaxsning xatti-harakatlarini ularning ijtimoiy funksiyalarining biologik xususiyatlari va kutilgan natijalar bilan bog‘laydigan muqobil tushunchaga aylanadi; o‘z navbatida, ayollarning o‘rnini tahlil qilishdan gender tizimini tahlil qilishga o‘tish gender tadqiqotlarini yangi fanlararo ilmiy soha sifatida rasmiylashtirish jarayonini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshlaydi. Xullas, gender tilshunosligining yangi ilmiy soha sifatida paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan feministik tilshunoslik fanlararo xususiyatga ega va asosan falsafa, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, tarix, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya

va tilshunoslik vakillarining ayollar roliga munosabati bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Gender tadqiqotlari yangi fanlararo tadqiqot sohasi sifatida paydo bo‘lishi 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlarida to‘g‘ri keladi. XX asr boshlarida ayollar harakatlari natijasida paydo bo‘lgan va Amerika Qo‘shma Shtatlari va Germaniyada ayollarning saylov huquqi uchun kurashgan “yangi ayollar harakati”, o‘z navbatida, o‘ziga xos yo‘nalish – erkaklarning nafaqat jamiyat va madaniy hayotda, balki tilda ham hukmronligiga qarshi turuvchi tilning feministik tanqidini – boshqacha aytganda, feministik tilshunoslikni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Nutqni xulq-atvor jihatlarining o‘ziga xos tizimi sifatida muhokama qilish R.Lakofning nutqning lingvistik tahlilini aks ettiruvchi “Til va ayollar o‘rni” deb nomlanuvchi sotsiolingvistik asaridan kuchli turtki oldi [Lakoff, 1973]. Ushbu asarda muallif dunyoqarash tilning androsentriзмiga asoslangan va tilda ifodalangan ayol shaxsining qiyofasini qadrsizlantiradi degan xulosaga keldi. Bu asari orqali muallif dunyoning lisoniy tasviri tilning androsentrikligiga asoslanganligi va ayol shaxsining tilda ifodalangan obrazi kamsitilishini xuolasa qiladi: “Woman’s language has a foundation attitude that women are marginal to the serious concerns of life, which are preempted by men. The marginality and powerlessness of women are reflected in both the ways women are expected to speak and the ways in which women are spoken of”.

Antropotsentriзм falsafiy ta’limot sifatida insonning ma’naviy va tashqi dunyosini o‘zining irqiy, fiziologik, milliy, geografik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra qamrab oladi. Tilshunoslikda antropotsentriзм ushbu xususiyatlarni, umuman, tilning lug‘at tarkibi va boshqa lisoniy birliklar, xususan, paremiya orqali ifodalashning lisoniy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Maqollarda dunyo tasviri va inson qanday bo‘lishi kerakligi, uning qimmatli va salbiy fazilatlar va jamiyatdagi xatti-harakatlar me’yorlari millat vakillarining aqliy (mental) timsolida va xalq donishmandligida aks ettirilganligi sababli, ingliz tilidagi paremiyalar Britaniya xalqining turmush tarzi, mamlakatning geografik joylashuvi, tarixi va an’analari, madaniyati, asrlar davomida saqlanib kelinayotgan ijtimoiy-madaniy o‘rnini yaqqol ifodalaydi. Bu orqali u ingliz xalqining ijtimoiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlarga munosabatda bo‘lib, qadriyatlar tizimi, jamoat axloqi, etikasi, dunyoga va boshqa xalqlarga munosabati va boshqa jihatlarni o‘zida aks ettiradi [Kuusi, 1972; Dubrovin, 2008].

O‘zbek tilining paremiologik fondi ham ancha salmoqli sanalib, o‘z tarkibiga folklor – xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida namoyon bo‘luvchi bir necha minglab maqol, matal, hikmatli so‘z hamda aforizmlarni qamrab oladi. Umuman olganda, barcha tillardagi, xususan o‘zbek tilidagi maqol va matallar mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyati, uning tarixi, buguni kelajagi hamda umumiy turmush tarzini ifodalovchi beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Gender fanlararo hodisa sifatida ko‘plab turli ilmiy soha vakillari tomonidan batafsil tadqiq etilgan, xususan, ushbu masala O.O. Antonovanning “Gender tadqiqotlarining falsafiy va metodologik asoslari muammolari” asarida batafsil ko‘rib

chiqilgan bo‘lib, muallif unda gender tengligi muammolariga asos solgan F.Volter, D.Didro, S.Monteskye, J.J. Russo kabi falsafa va gumanitar fanlar vakillarining g‘oyalari asoslangan ilmiy ishlarning keng ro‘yxatini keltiradi. G‘arbda ayollar emansipatsiyasi muammolari V.Brayson, J.Skott, E.A. Belova, O.A. Voronina, V.I. Uspenskaya tomonidan, Rossiyada esa V.G. Belinskiy, A.I. Gertsen, N.G. Chernishevskiy, M.Bakli, R.Glikman, R.Stites, L.Edmondson, S.G. Ayvazova, O.V. Voronina, N.B. Gafizova, G.A. Elnikova, M.V. Rabjayeva va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ayni paytda, O.O. Antonova ilmiy ishida gender metodologiyasidan foydalangan holda muayyan tarixiy sharoitlarda ayollarning mavqeyini o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar; ayollarning madaniy an‘analar doirasidagi ijtimoiy mavqeyini, ayollar huquqlarini va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rnini o‘rganish; feministik ijtimoiy tushunchalar va epistemologiya mohiyatining feministik tadqiqotlari; feministik san‘at tarixiga oid tadqiqotlar; feminizmning liberal oqimlari, feminizmning psixanalitik tadqiqotlari va feminizmning postmodern oqimlarini tahlil qiladi [Antonova, 2004].

Ma‘lumki, paremiologik birliklar, xususan maqol, matal hamda hikmatli iboralar biror tilda so‘zlashuvchi xalq vakillarining tarixi, urf-odatlarini, ma‘naviy dunyosi, umuman olganda, madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi barchaga yod bo‘lib ketgan til birligi sanaladi. Ingliz tilidagi maqol (proverb) atamasi lotin tilidagi *proverbium* so‘zidan olingan bo‘lib, odatda inson amaliy tajribasiga asoslangan yoki sog‘lom firmani targ‘ib etuvchi haqiqat yoki foydali donolikni ifodalovchi qisqa gap sifatida ta‘riflanadi [Oxford University Press, n.d.]. Haqiqiy maqollar – bu avloddan-avlodga asosan og‘aki so‘zlashuv orqali o‘tib kelgan yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin bo‘lgan gaplardir. O‘zbek tilidagi “maqol” termini esa arab tilidagi “qavlun” so‘zidan olingan bo‘lib, “aytmoq, demoq” degan ma‘nolarni anglatadi. “Matal” so‘zi ham tez-tez aynan maqol ma‘nosida qo‘llanilib, u ham arab tilidagi “masal” (namuna) so‘zidan kelib chiqqanligini qayd etish lozim [Ruzimboyev, 2007].

So‘z paremiologik birliklar xususida borar ekan, turli tillardagi maqol va matallarning quyidagi umumiy xususiyatlarini ta‘kidlashimiz lozim:

- maqol va matallar xalq donoligi natijasida yaratilgan bo‘lib, bu odamlar tomonidan ilgari surilishi kerak bo‘lgan g‘oyaning namunasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin;

- didaktik xususiyat maqollarda ifodalangan hayotiy muhim g‘oyalardan foydalanishning asosi sifatida namoyon bo‘ladi;

- purma‘no maqol hamda matallar o‘zining asl ma‘nosida yoki biror bir ko‘chma ma‘noni ifodalovchi konnotativ ma‘noda qo‘llanilishi mumkin.

Maqol va matallar jamiyatda ta‘lim, tarbiya singari yukasak ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan hodisalarni shakllantirish va tarraqqiy ettirishda alohida tartibga solishni ta‘minlash vositasi sifatida xizmat qilib, ularning asosiy maqsadi istalgan vaqtda alohida shaxs yoxud jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir [Wierzbicka, 1997]. Maqol va matallarga ko‘pincha ularni ifodalash uchun ishlatiladigan so‘zlarning oddiy ma‘nolaridan tashqari qo‘shimcha bo‘yoqdorlikni qamrab oluvchi ko‘chma ma‘noni o‘zida mujassam etgan donishmandlikni, hikmatni ifodalovchi iboralar, jumlar yoki

gaplardan tashkil topadi. Maqol va matallarning eng muhim jihatlaridan biri – soʻzsiz sodda, aniq, ommabop qarashlar yordamida insoniyatning amaliy hayotiy tajribasi va sogʻlom fikriga tayangan holda voqea-hodislarni toʻgʻri talqin etish imkoniyatini berishini koʻrsatish mumkinligi. Ular turli xil til vositalari yordamida ifodalanishi mumkin, masalan, ritorika, metafora, ishorali, kinoyali va boshq. Nihoyat, tadqiqot nuqtayi nazaridan, maqollar maʼlum bir mintaqadagi xalqning madaniy tajribasini aks ettiruvchi oyna sifatida eʼtirof etilishi mumkin.

TADQIQOT METODLARI

Umumiy tilshunoslik fani doirasida ingliz tilidagi maqol, matal, aforizm, hikmatli soʻz singari til vositalaridan tashkil topgan paremiologik birliklarni tadqiq etishda turli xil uslub va izlanish vositalaridan keng va samarali qoʻllanilganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Shunday tadqiqot usullaridan biri, shubhasiz, anketa yordamida amalga oshiriladigan soʻrovnoma uslubi sanaladi. Ingliz tilidagi paremiologik birliklarni tadqiq qilish haqida toʻxtalganda, mazkur soʻrovnoma yordamida maqol va matallarni tahlil qilgan tilshunos V.Miderni taʼkidlab oʻtishimiz lozim. Muallif oʻz tajribasida turli respondentlar tomonidan paremiyaga berilgan 55 xil taʼrifni aniqlab, maqol atamasini quyidagicha taʼriflaydi: “Maqol – bu xalqning qisqa, odatda barcha uchun tushunarli (tanish) boʻlgan jumla boʻlib, u donolik, haqiqat, axloq va anʼanaviy qarashlarni metaforik, mustahkam va esda qolarli shaklda oʻz ichiga oladi va avloddan-avlodga oʻtib boradi [Mieder, 2004, 2015]. Paremiyalarni oʻrganishga turtki boʻlgan folklor – xalq ogʻzaki ijodi namunalarini tadqiq etish, shuningdek, xalq ijodiyoti manbalari boʻlgan mifologiyani jamiyatning zamonaviy madaniy va ijtimoiy meʼyorlari bilan bogʻlash nafaqat filologlar, balki antropologlar, psixologlar va boshqa soha mutaxassisleri uchun ham keng qamrovli tahlil va tadqiq imkoniyatlarini yaratadi.

Ingliz va oʻzbek tillaridagi paremiyalarni oʻrganish nisbatan ancha uzoq tarixga egadir. Xususan, ingliz tilidagi maqollarni tadqiq etishga bagʻishlangan ilmiy asarlardan biri D.E. Marvin qalamiga mansub boʻlib, unda ingliz tilidagi maqollarning qadimiy ekanligiga alohida urgʻu beriladi [Marvin, 1922]. Keyinchalik tilni tadqiq etishning sistem-struktural taʼlimoti taʼsirida maqol va matallarning tarkibiy tuzilishi ham alohida tadqiq etiladi, shunday ilmiy izlanishlardan biri amerikalik tilshunos A.Dandes muallifligida amalga oshirilgan boʻlib, unda ingliz tilidagi maqollarning tarkibi lisoniy jihatdan batafsil tahlil etiladi [Dundes, 1980, 1981]. Shuningdek, mazkur davrdagi yana bir tadqiqotda D.Krem tomonidan ingliz tilidagi maqol va matallarning lingvistik maqomi alohida qayd etiladi [Cram, 1983]. Shu davrga xos boʻlgan jihat – maqollarning semantik strukturasi oʻrganish ancha ommaviy tus ola boshlaydi. Shunday asarlardan biri N.Norrikga tegishli boʻlib, muallif ingliz tilidagi maqollarni tadqiq qilgan ekan, ularning maʼno xususiyatlariga alohida eʼtibor qaratadi [Norrick, 1985].

Oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab lisoniy birliklarni oʻrganishda tafakkurni oʻrniga alohida eʼtibor berila boshlanadi, yaʼni til birliklarining kognitiv jihatlarini alohida tilshunoslik tarmogʻi boʻlgan kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan

o'rganish keng tarqala boshladi. Maqol va matallarning kognitiv xususiyatlari ham bundan mustasno bo'lmaydi hamda amerikalik tilshunos R.Honek paremiologik birliklarning kognitiv xususiyatlarini batafsil tadqiq etadi [Honeck, 1997]. So'z ingliz tilidagi maqol va matallar haqida borar ekan, yana bir mashhur amerikalik muallif V.Miderning paremiologiya qo'shgan ulkan hissasini ta'kidlamalikning iloji yo'q. V.Mider uzoq yillar davomida paremiyalarni tadqiq etib, mazkur sohaga oid ko'plab ilmiy tadqiqot natijalarini nashr etadi [Mieder, 2015]. Ingliz tilidagi maqollarning turli jihatlari I.A. Gusenov [Guseynov, 1981] hamda L.I. Selyanina [Selyanina, 1970] singari rus tilshunoslari tomonidan ham chuqur tahlil qilinadi. So'nggi yillarda M.A. Varganing boshqa tilshunoslar bilan hammualiflikda paremiyalarning o'ziga xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy nashrlari ham alohida ahamiyatga ega [Gotthardt & Varga, 2015]. O'zbek tilidagi maqol va matallarning turli jihatlarni tadqiq etish o'zbek tilshunoslari orasida ancha keng qamrovli soha sanalib, ulardan ayrimlari, xususan, akademik A.Sarimsoqov va boshqa tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan o'zbek xalq maqollari to'plamlari [Sarimsoqov, 1989; Mirzayev va boshq., 2005], boshqa tillardagi maqol va matallar asosida tuzilgan lug'atlar, xususan M.Sodiqovning o'zbekcha-ruscha maqol va matalar lug'ati [Sodiqova, 1993], K.Karamatova va H.Karamatovlarning inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'atini [Karamatova & Karamatov, 2000] singari ilmiy tadqiqotga asoslangan asarlarni alohida qayd etishimiz mumkin.

Shunday qilib, hozirgi kunda o'tgan asrda boshlangan tilning paremiologik fondini tadqiq etishga bo'lgan uzluksiz qiziqishning mavjudligini kuzatishimiz mumkin, zero, mazkur soha zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Paremiyalar boshqa til birliklaridan boy mazmun plani bilan farqlanib, ular umuminsoniy va milliy-madaniy jihatlarni o'zida mujassam etadi. Professor M.D. Djusupov ta'kidlaganidek, tilning paremiologik birliklari tizimida antropotsentrik maqollar, ya'ni mazmun planida insonga markaziy o'rin berilgan maqollar alohida o'rin tutadi. Ular insonga, uning faol mehnatiga, uning fe'l-atvori va milliy mentalitetining namoyon bo'lishiga nafaqat bevosita, balki obrazli, mavhum, umumiy, umumlashtirilgan tarzda ham yo'naltiriladi [Djusupov, 2022].

Zamonaviy filologiyada turli til hodisalari zamirida yotgan umumiy tamoyillarni aniqlash va ularning tizim ichidagi aloqalari mantig'ini ochib berish maqsadida lingvostatistikadan foydalanishga e'tibor kuchaymoqda. Har xil turdagi taqsimotlarni aniq aks ettiruvchi va umumlashtiruvchi xususiyatlarni keyingi tahlil va taqqoslash maqsadida izlash umuman zamonaviy statistika, xususan, lingvostatistikaning eng dolzarb vazifalaridan biridir [Bektayev, 1978]. Mazkur tadqiqot doirasida lingvostatistik tahlildan keng foydalaniladi. Shuningdek, taqqoslanilayotgan tillarning paremiologik birliklarida antropotsentrizmni ifodalashdagi o'xshashlik qadriyat munosabatlariga asoslanadi: yaxshi va yomon, go'zal va xunuk, rost va yolg'on, mehnat va dangasalik kabi qarama-qarshi (oppozitsion) kategoriyalar antropotsentrizmning odamlar, narsa va hodisalarga nisbatan bo'lgan ijobiy/salbiy munosabat belgilari asosida verballashuviga asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Turli tildagi material ustida ishlash uchun tayyorlangan paremiologik minimum doirasida paremiyalarning lingvostatistik tahlili ma’lum u yoki bu maqol yoki matal asosida shakllantirilgan ma’lum leksik mikrogruphlarni hisoblash orqali turli tizimli tillarda so‘zlashuvchilar tomonidan antropotsentriзмning (o‘xshashligi) (universalligi) verbalizatsiyasini aniqlashga imkon beradi. Quyidagi keltiriladigan jadval mutlaq qiymat va nisbiy qiymat (foiz nisbatida) bo‘yicha muayyan mikrogruphlarni hisoblashga asoslangan. Quyida keltiriladigan mikrogruphlar mazmuniga ko‘ra maqol va maqollarni hisoblash har bir til (ingliz, o‘zbek) uchun 380 tadan paremiologik birlikdan iborat bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiyalarni qamrab oluvchi lug‘atlar manba sifatida foydalanildi. Universal lisoniy mikrogruphlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Antropotsentriзмning ingliz va o‘zbek paremiologik birliklarida ifodalanishidagi o‘xshashlik va farqlar

Leksik-semantik mikrogruph	Ingliz maqollaridagi miqdoriy ko‘rsatkichlari mutlaq sonlarda va paremlar doirasida %da 380 ta maqoldan iborat minimum	O‘zbek maqollaridagi miqdoriy ko‘rsatkichlari mutlaq sonlarda va paremlar doirasida %da 380 ta maqoldan iborat minimum
Inson, odam	112 (29,5%)	71 (18,7%)
Tana tuzilishi	22 (5,8%)	17 (4,5%)
Intellekt	4 (1,1%)	8 (2,1%)
Ijobiy/Salbiy sifatlar	15 (3,9%)	41 (10,8%)
Qarindoshlik/Nikoh rishtalariga oid atamalar	27 (7,1%)	30 (7,9%)
Ijtimoiy aloqalar/rollar	11 (2,9%)	34 (8,9%)
Zoonimlar/Ornitonimlar va boshq.	30 (7,9%)	26 (6,8%)
Tuyg‘ular, hislar, xususiyatlar	25 (6,6%)	16 (4,2%)
G‘ayritabiiy	13 (3,4%)	8 (4,2%)
Boshqalar	125 (32,9%)	129 (33,9%)

Jadvalda keltirilgan leksik-semantik mikrogruphlardan insonning o‘ziga, uning oilaviy muhiti va ijtimoiy aloqalariga, shuningdek, uning tafakkuri, fantaziyasi va metaforik assotsiatsiyalari faoliyatiga oid leksemalarni taqdim etuvchi maqollarni hisoblash ularni quyidagi mikrogruphlarga birlashtirish imkonini berdi: “Inson, odam”, “Tana tuzilishi”, “Intellekt”, “Ijobiy/Salbiy sifatlar”. “Qarindoshlik/Nikoh rishtalariga oid atamalar”, “Ijtimoiy aloqalar/rollar”, “Zoonimlar/ornitonimlar va boshqalar”, “Tuyg‘ular, hislar, xususiyatlar”, “G‘ayritabiiy” va “Boshqalar”.

“Inson, odam” mikrogruphi “inson” so‘zining o‘zini (man, odam), uning gender belgilarini (erkak/ayol, man/woman), ko‘plik soni (xalq, people), yosh belgilarini, masalan, go‘dak, bola, kampir, chol, qizaloq/qiz, o‘g‘il, chaqaloq, jumladan, ularning ko‘plik shakllarini o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilidagi **“A man is as old as he feels, and a woman as old as she looks”** (Erkak o‘zini his qiladiganidek yoshda

(qari, kekxa), ayol ko‘rganidek yoshda (qari) bo‘ladi (ko‘rinadi)); o‘zbek tilidagi **“Xalq qarg‘asa, xor bo‘lasan, xalq qo‘llasa, bor bo‘lasan”**.

“Tana tuzilishi” mikrogruphiga “tana” leksemasi va uning qismlari, a‘zolari (bosh, ko‘z(lar), qo‘l-oyoq, til, yurak va boshq.) kiradi. Masalan: ingliz tilidagi **“Absence makes the heart grow fonder”** (Hijron yurakni yanada muhabbatga to‘ldiradi); o‘zbek tilidagi **“O‘rtada burun bo‘lmasa, ko‘z ko‘zni o‘yar”**.

“Qarindoshlik/Nikoh rishtalariga oid atamalar” tarkibiga “er-xotin”, “ota-ona”, “o‘g‘il-qiz”, “qaynona-kelin” kabi leksemalar kiradi. Masalan, ingliz tilidagi **“A light wife makes a heavy husband”** (Yengil xotin erni og‘ir qiladi); o‘zbek tilida **“Kelin – yomon, nevara – shirin”**.

Turli tizimli tillardan misollarni ko‘rib chiqar ekanmiz, “intellekt” mikrogruphi “aql”, “ahmoqlik”, “donolik”, “idrok” leksemalari va ulardan tuzilgan sifatlarni o‘z ichiga olishiga guvoh bo‘lamiz, masalan, rus tilida sifat bilan bog‘liq maqollar juda keng tarqalgan. Masalan, ingliz tilidagi **“A woman’s mind and wind change often”** (Ayolning fikri va shamol o‘zgaruvchan); o‘zbek tilida **“Aql yoshda emas, boshda”**.

“Ijobiy/Salbiy sifatlar” ma‘nosiga ega mikrogruph ko‘pincha “yaxshi – yomon”, “mehribon – yovuz”, “mehribon” yaxshi ma‘noda keladigan qarama-qarshiliklari bilan ifodalanadi; masalan, “dangasa” (“dangasalik”), “chiroyli”, “sog‘lom”, “yolg‘on”, “mag‘rur” kabi xususiyatlar ham hisobga olinadi. Masalan, ingliz tilida **“A lazy sheep thinks its wool heavy”**; o‘zbek tilida **“Yaxshi rahbar elni o‘ylar, yomon rahbar hovli bo‘ylar”**.

“Tuyg‘ular, hislar, xususiyatlar” mikrogruphida emotsional (his-tuyg‘u) -sezgi reaksiyalar sohasini (masalan, sevgi, quvonch, g‘azab, yolg‘izlik va boshq.) aks ettiruvchi leksemalar, shuningdek, ba‘zi xususiyatlar, masalan, “tozalik”, “go‘zallik” va hokazolardan tashkil topadi. “Tozalik” semantikasi ko‘p qirrali; masalan, ingliz maqolida shunday deyiladi: **“Cleanliness is next to godliness”** (Tozalik taqvonning yonida turadi.) Shuning uchun antropotsentriзмning namoyon bo‘lish ko‘rinishlari sifatida his-tuyg‘ular bilan bir qatorda mikrogruphga turli ehtimoliy xususiyat ma‘noli leksemalar ham kiritilgan.

“Ijtimoiy aloqalar/rollar” mikrogruphida jamiyatda, kasb-hunaralarda, turli iyerarxiyalarda birga yashash nuqtayi nazaridan odamlar bilan o‘zaro munosabatlarni aks ettiruvchi leksemalar inobatga olinadi: “do‘st-dushman”, “qo‘shni”, “mehmon”, “podshoh” (king, shoh, mulla), “gado”, “kotib” kabilar. “Zoonimlar, ornitomimlar va boshqalar” mikrogruphi hayvon va qushlar obrazining to‘g‘ri lug‘aviy va metaforik ma‘nolari bilan bog‘langan leksemalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ingliz tilidagi **“What’s sauce for the goose is sauce for the gander”**; o‘zbek tilidagi **“Tulki o‘z quyrug‘ini guvohlikka tortadi”**.

“G‘ayritabiiy” mikrogruphi “xudo”, “iblis” (shayton), “avliyo(lar)” leksemalarini qamrab oladi. Masalan, ingliz tilidagi **“Talk of the devil and he is sure to appear”** (Iblis haqida gapirsang, u, albatta, paydo bo‘ladi); o‘zbek tilidagi **“Xalq g‘azabi – xudo g‘azabi”**.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tilning maqollarida antropotsentriзмning ifodalanishidagi umuminsoniy o‘xshashlik tabiatda insonning

mavjudligi va uning jismoniy tuzilishi haqidagi umumiy umuminsoniy qarashlar, ingliz va o‘zbek lisoniy madaniyatida shakllangan ayrim insoniy fazilatlar haqidagi stereotipli fikrlar bilan bog‘liq sanaladi. Darhaqiqat, ko‘rsatilgan tillarning har birida antropotsentrizmni verbalizatsiya qilishda quyidagi eksplitsit ifodalangan mikroguruhlar ustunlik qiladi: “Inson/odam”, “Tana tuzilishi”, “Qarindoshlik/nikoh rishtalari”, “Ijtimoiy aloqalar/rollar” va “Intellekt” – ingliz tilida 46,4%, o‘zbek tilida 42,1%ni tashkil qiladi.

Shunday qilib, tillardagi maqollarning har bir leksik-semantik mikroguruhi o‘xshash va farqli tomonlari bilan ajralib turadi. O‘xshashliklar umuminsoniy (universal) xususiyatga ega bo‘lib, farqlar esa milliy va madaniy jihatlarga asoslanadi. Masalan, o‘tkazilgan lingvostatistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tana tuzilishini ifodalovchi mikroguruhda bunday maqollar ingliz tilida – 22 = 5,8%, o‘zbek tilida esa 17 = 4,5%dan iborat. Shunday holat statistik tadqiqot natijalari va boshqa leksik-semantik mikroguruhlarni solishtirganda ham kuzatiladi. Masalan: ijobiy/salbiy sifatlar leksik-semantik mikroguruh – ingliz tilida – 15 = 3,9%; o‘zbek tilida – 41 = 10,8%ni tashkil qiladi. Mazkur mikroguruhda o‘zbek tilidagi maqollar ingliz tilidagi paremiyalarga qaraganda qariyb uch barobar ko‘p ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Mazkur tillarning lingvistik statistikasi taxminan teng bo‘lgan mikroguruhlar ham mavjud (masalan, qarindoshlik/nikoh atamalari: ingliz tilida – 27 = 7,1%; o‘zbek tilida – 30 = 7,9% va h.k.z.). Maqollarda antropotsentrizmning ifodalanishidagi ushbu xususiyatlar har bir tilning maqollarida alohida-alohida u yoki bu tushunchaning ustunligini (yoki aksincha) ko‘rsatadi, bu esa har bir xalq faoliyatida, xususan, uning til va nutq faoliyatida milliy-madaniy o‘ziga xoslikni ochib berishga xizmat qiladi.

Agar qadimgi odam hayvonot olamining o‘n minglab yillar davom etgan evolyutsiyasi jarayonida o‘zini va o‘z tabiatini atrofdagi uni o‘rab turgan dunyoga qarama-qarshilikda anglagan va verballashtirgan bo‘lsa va shunga ko‘ra, qarindoshlik, yaqinlik va qabiladoshlarning tirik qolish (jon saqlab qolish, yashash) uchun qilgan mehnati va kurash jarayonining fiziologik darajasini bilgan va so‘z bilan ifodalaganligini hisobga olsak, o‘xshashlik uning umuminsoniy belgilanishida tabiiy jihatdir. Qadimgi odamning bosh miyasi va nutq apparatining rivojlanishi mavhum fikrlash va assotsiativ aloqalarning rivojlanishini ham belgilab beradi, bu esa nomoddiy xususiyatlar – qabiladoshlarining “Ijjobiy/salbiy sifatleri”ni og‘zaki ifodalash (verballashtirish), “Hislar, tuyg‘ular, xususiyatlar” va ularga bo‘lgan munosabatni belgilash imkonini beradi.

Minglab yillar davomida o‘simlik (flora) va hayvonot dunyosi (fauna) bilan o‘zaro faoliyat, uy hayvonlari va qushlarni xonakilashtirish antropotsentrizmning implitsit verbalizatsiyasi, ya‘ni hayvonlar/qushlar/o‘simliklar obrazlari orqali o‘z xususiyatlari va fazilatlarini bilish, shuningdek, astronomik obyektlar va iqlim hodisalariga mavhumlik darajasini oshirish kabilarni taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Bu “Zoonimlar, ornitomimlar va boshqalar” mikroguruhi orqali antropotsentrizmning implitsit verbalizatsiyasining yuqori darajasini tushuntirishi mumkin – ingliz tilida 30 = 7,9%, o‘zbek tilida – 26 = 6,8%.

“Ijjobiy/salbiy sifatlar” mikroguruhida ingliz, rus va o‘zbek tillarining

antropotsentrik maqollari insonning eng katta qadriyatiga ega bo‘lgan xususiyatlari va hayotiy faoliyatiga ijobiy yoki salbiy baho berishni qamrab oladi; foizlarda – ingliz tilida – 15=3,9%, o‘zbek tilida – 41=10,8%.

Yuqoridagi hisob-kitoblar nisbiy xarakterga ega ekanligi va statistik hisob-kitoblarga ustunlik bermaydigan tadqiqot maqsadlari bilan belgilanligi bois miqdoriy nisbatdagi farqlarni mutlaq tafovut deb hisoblamas to‘g‘ri emas. Qolgan mikrogruphlarning hisob-kitoblari natijalari ham nisbiy xarakterga egadir, chunki ular subyektiv tanlov natijasi sifatida boshqa tadqiqotlar tomonidan bahsli bo‘lishi mumkin bo‘lgan paremiologik minimumga (uch tilning har biri uchun 380 birlik) asoslanadi. Qolaversa, bir qator paremiyalarda “er”, “erkak” = “inson” va “ayol=xotin” ma’nolarining semantik o‘xshashligi kabi lisoniy nyuanslar hisob-kitoblarni murakkablashtirgan. Masalan, ingliz tilidagi quyidagi **“A worthy woman is the crown of her husband”** (Loyiq ayol erining tojidir) maqolida “woman” (ayol) leksemasi mavjud bo‘lib, uni “Inson/odam” mikrogruphiga ham, “qarindoshlik / nikoh rishtalari” mikrogruphiga ham kiritish mumkin, chunki u “husband” (er) so‘ziga nisbatan qo‘llanilganda, “xotin” (turmush o‘rtoq) ma’nosini oladi. O‘zbek tilidagi **“Erning ishi el bilan”** maqolida “er” (turmush o‘rtoq) leksemasi “odam” va “erkak” ma’nolarini ham ifodalaydi.

Mazkur lingvistik nyuanslar rivojlanish jarayonida yo‘qolgan qadimgi leksik-semantik va umumiy shakllarning aks-sadosidir. Bunday nyuanslar hisob-kitoblarning to‘g‘riligiga ta’sir qiladi va maxsus lingvistik statistik tadqiqotlarda hisobga olinishi kerak. A.A. Polikarpov o‘z ilmiy izlanishida qayd etganidek, tilshunoslikdagi o‘lchov muammosining murakkabligi ko‘p jihatdan o‘lchov obyektining standart tasavvurining mavjud emasligi bilan bog‘liq hodisadir [Polikarpov, 1998; 9]. Bu yerda keltirilgan natijalar sezilarli darajada soddalashtirilgan shaklda taqdim etilganligi va yakuniy mutlaq haqiqatni aniqlashga da’vo qilmaganligi sababli, antropotsentrizmning verballashuvini taqdim etishning bu usuli paremiologik birliklarni statistik o‘rganish natijalaridan ularni tahlil qilish jihatlaridan biri sifatida foydalanish imkoniyatini ko‘rgazmali shaklda aniq ko‘rsatib beradi. Hisob-kitoblarning nisbiyligi butun paremiyalarning chuqur antropotsentrizmi va ingliz, rus va o‘zbek tillarida antropotsentrizmni verbalizatsiya qilishning kognitiv lingvistik mexanizmlarining o‘xshashligi haqidagi tezisning isbotiga ta’sir qilmaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tilshunoslikda antropotsentrizm o‘ziga xos noyob hodisadir. Tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqib, falsafa fani doirasida antropotsentrizm ko‘rinish jihatdan o‘zgarishi yoki bizning davrimizning ekosentrizmi kabi boshqa yo‘nalishlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berishi mumkin edi, ammo tilshunoslikda antropotsentrizm qadimgi Homo sapiens uni atrofni o‘rab turgan voqelikni, qabilaviy va ijtimoiy aloqalarni o‘z qabiladoshlari tushunish prizmasi, asosi bo‘lib xizmat qiladi. Maqol va matallarda eng qadimiy elementlar saqlab qolinadi, shuning uchun tahlil aynan shu paremiologik birliklar asosida amalga oshirildi. Biz lingvistik statistik material sifatida antimaqol yoki memlardan ataylab foydalanmadik, chunki ular asl (original) nusxaga nisbatan ikkinchi darajali (antimaqol) va aksincha, nisbatan o‘tkinchi(IM)dir. Antimaqollar va IMLarning asosiy xususiyati sanaluvchi yumorni hisob-kitob qilish qiyin masaladir.

Shuning uchun jadvalda keltirilgan ma'lumotlar paremiyalarda antropotsentrizmning verbalizatsiya mexanizmlarining o'xshashligini tasdiqlash uchun yetarli bo'lib, ulardan "Paremiologiya", "Qiyosiy tilshunoslik" kursi doirasida ham lingvonazariy maqsadlarda, ham uslubiy maqsadlarda foydalanish mumkin.

Madaniyatlararo (muloqot) hamkorlikni baholash uchun IMLar bizga qiziqarli zamonaviy material taqdim etadi. Tarixiy va lingvistik tuzilmalar bo'lgan maqol va matallardan farqli o'laroq, IMLarning o'tkinchi tabiati bizga hatto voqealarning tarixiy sathida kam ahamiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalarga ham yumoristik baho berish imkoniyatini beradi. Masalan, 2025-yilning 26-may kuni xorijiy va Rossiya ijtimoiy tarmoqlarida ko'pchilik foydalanuvchilar tomonidan Fransiya prezidenti Emmanuel Makron Vyetnamga yetib kelishi bilan samolyotdan chiqish arafasida uning yuziga turtib yuborgan rafiqasi bilan janjallashgani deb talqin qilingan video tarqalib ketdi (Manba: BBC Slap yoki "shunchaki aldash"? Makron xotinining prezidentni yuziga turtayotgani aks etgan videoni tushuntirdi [BBC News Russkaya sluzhba, 2025]). Voqea natijasida memlar to'liqini paydo bo'lib, unda Fransiyaning birinchi xonimi bokschi yoki jangchi, prezidentning o'zi esa qurbon sifatida yuzida shapaloq izi yoki ko'zi ko'kargan yoki tishlari tushib ketgan tasvirda namoyon bo'ladi. Xuddi shu kuni Rossiya OAVlari fransuz va ingliz tilidagi faoliyat ko'rsatuvchi OAVlari va ijtimoiy tarmoqlardan IMni ko'chirib olishdan tashqari, o'zlarining IM versiyasini taqdim etadilar, unda prezident Vladimir Putin Brijit Makronga shaxsiy suhbatda erini kaltaklash kerakligi haqida maslahat berayotgani aks etadi. O'zbekiston OAVlaridan faqat Qalampir.uz internet nashri ("Xotiningingiz sizni uradimi?" Makron Fransiyada memga aylandi [Jalg'ashev, 2025]). 27-may kuni dunyo yangiliklari e'lonida voqeaga munosabat bildirdi va voqeani eslatish va uni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan tasvirlash bilan cheklandi. Ingliz va rus memlarini taqqoslash boshqa manbadan ko'chirib olish fakti va mahalliy realiyaga asoslangan asl (original) ijodkorlik faktini namoyish etadi, ya'ni qayta ishlash va madaniyatlararo o'zaro ta'sir faktini tasdiqlaydi; ingliz tilidagi memlarni o'zbek memlari bilan yoki ruscha memlarni o'zbek tilidagi memlar bilan solishtirish qayta ishlashni emas, faqat boshqa manbadan ko'chirib olish faktini tasdiqlaydi. Bu o'zbek mentaliteti va an'anaviy qarashlarining o'ziga xosligi bo'lib, unda ayniqsa birinchi xonimning yoki umuman har qanday ayolning jamiyatda bunday xatti-harakati mutlaqo nomaqbul va jirkanch model sifatida qabul qilinadi.

XULOSA

Paremiyalarda antropotsentrizmning ifodalanishidagi farqlar atrof-muhit (iqlim, o'simlik, hayvonot dunyosi) hodisalariga qarab; qabilalar va elatlarning kundalik mehnat amaliyoti (ular ichida har uch millat ham shakllangan) ijobiy yoki salbiy belgilar asosida baholovchi tushunish; inson xarakteri, uning xulq-atvori, turmush tarzi va faoliyatining qaysi sifatleri ijobiy yoki salbiylik asosida baholovchi tushunish predmeti bo'lganligi; tarixiy va madaniy taraqqiyotga qanday diniy urf-odatlar (xristianlik, islom) hamroh bo'lganligi asosida yuzaga chiqadi. Bunday tafovutlar tufayli lingvomadaniy hamjamiyatning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan, faqat ma'lum bir etnik guruhga xos bo'lgan va ham eksplitsit, ham

implitsit ravishda ifodalanishi mumkin bo'lgan ustuvorliklarini aniqlash, shuningdek, madaniyatlararo o'zaro faoliyat va o'zaro ta'sir darajasini baholash mumkin.

Demak, ingliz va o'zbek tillarining paremiologik birliklarida antropotsentriзмning verballashuvi mavjudlik va borliq nuqtayi nazariga qarab o'xshashlik va farqlarga ega bo'lishi mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqol va matallarda insonning voqelikni borlig'i yoki jismi (tana tuzilishi) orqali, uning qarindoshlik va ijtimoiy rishtalari, insonning m'naviy-axloqiy baho berishi orqali anglash ezgulik (sahiylik), samimiylik, rostgo'ylik (halollik), oliyjanoblik, mehribonlik, rahmdillik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik kabi insoniy fazilatlarini ma'qullashga borib taqaladi. Ochko'zlik, baxillik, ayyorlik, qo'rqqoqlik, xiyonat, beparvolik, noshukurlik va hokazolar birdek qoralanadi. Ular tarixiylik, atrof-muhit ta'siri va milliy-madaniy o'ziga xoslik omillari bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Antonova, O.O. (2004). *Problema filosofsko-metodologicheskikh osnovanii gendernykh issledovaniy. Avtoref. diss. kand. filos. nauk.* Moskva: Moskovskiy gosudarstvennyy universitet imeni M.V. Lomonosova.
2. Bektaev, K.B. (1978). *Statistiko-informatsionnaya tipologiya tyurkskogo teksta.* Alma-Ata: Nauka.
3. Dubrovin, M.I. (2008). *Angliiskie i russkie poslovitsy i pogovorki v illyustratsiyakh.* Moskva: Prosveshchenie.
4. Dundes, A. (1980). *Interpreting folklore.* Bloomington: Indiana University Press.
5. Dundes, A. (1981). On the structure of the proverb. *Proverbium*, 25, 961–973.
6. Dzhusupov, M. (2022). Antropotsentricheskije poslovitsy kak lingvokontrastivnaya i lingvometodicheskaya problema. *O'zbekistonda xorijiy tillar*, 5(46), 37–52.
7. Gotthardt, H.H., & Varga, M.A. (Eds.). (2014). *Introduction to paremiology: A comprehensive guide to proverb studies.* Berlin: De Gruyter.
8. Guseinov, I.A. (1981). *Semanticheskie osobennosti i natsionalnaya spetsifika angliiskikh poslovits. Avtoref. diss. kand. filol. nauk.* Moskva: Tipografiya MGPIIYa im. M. Toreza.
9. Honeck, R. (1997). *A proverb in mind: The cognitive science of proverbial wit and wisdom.* USA: Lawrence Erlbaum.
10. Jalg'ashev, Sh. (2025-yil 27-may). "Xotiningiz sizni uradimi?". Makron Fransiyada memga aylandi. *Qalampir.uz* da. <https://www.qalampir.uz/news/khotiningiz-sizni-uradimi-makron-frantsiyada-memga-aylandi-119509>.
11. Karamatova, K.M., & Karamatov, H.S. (2000). *Proverbs – Maqollar – Poslovitsy.* Tashkent: Mehnat.
12. Karasik, V.I. (2002). *Yazykovoy krug: Lichnost', kontsepty, diskurs.* Volgograd: Peremena.
13. Kirilina, A.V. (2000). Oprimenenii ponyatiya "gender" v russkoyazychnom lingvisticheskom opisaniy. *Filologicheskie nauki. Nauchnye doklady vysshei shkoly*, 3, 28–36.
14. Cram, D. (1983). The linguistic status of the proverb. *Cahiers de Lexicologie*, 43, 53–71.
15. Kuusi, M. (1972). *Towards an international type-system of proverbs.* Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia.
16. Lakoff, R. (1973). Language and woman's place. *Language in Society*, 2(1), 45–80.
17. Marvin, D.E. (1922). *Antiquity of proverbs.* New York: G.P. Putnam's sons.
18. Mieder, W. (1993). *Proverbs are never out of season: Popular wisdom in the modern age.* New York: Oxford University Press.
19. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A handbook.* Westport, CT: Greenwood Press.
20. Mieder, W. (2015). *Wise words: Essays on the proverb.* New York: Garland Publishing.
21. Mirzayev, T., Musoqulov, A., & Sarimsoqov, B. (2005). *O'zbek xalq maqollari.* Toshkent: Sharq.

22. Norrick, N.R. (1985). *How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs*. Amsterdam: Mouton.
23. Oxford University Press. (n.d.). Proverb. In *Oxford English Dictionary*. Retrieved from https://www.oed.com/dictionary/proverb_n?tab=factsheet#27994812.
24. Polikarpov, A.A. (1998). *Tsiklicheskie protsessy v stanovlenii leksicheskoi sistemy yazyka: Modelirovanie i eksperiment. Diss. dok. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarstvennyy universitet imeni M.V. Lomonosova.
25. BBC News Russkaya sluzhba. (2025 god 26 maya). Poshchechina ili «prosto durachilis»? Makron obyasnil video, gde zhena tolkaet prezidenta v litso. *BBC.com*. <https://www.bbc.com/russian/articles/c0lnky2jr92o>.
26. Ruzimboev, S., & Ruzmetov, Kh. (2007). *Folklor atamalarining qisqacha lug'ati*. Urganch: Urganch davlat universiteti.
27. Sarimsoqov, A.V. (1989). *O'zbek xalq maqollari*. Toshkent: Fan.
28. Selyanina, L.I. (1970). *Poslovitsy angliiskogo yazyka*. Avtoref. diss. kand. filol. nauk. Moskva: 1-i Moskovskii gosudarstvennyi institut inostrannykh yazykov.
29. Sodikova, M. (1993). *Kratkii uzbeksko-russkii slovar poslovits i pogovorok*. Tashkent: O'qituvchi.
30. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. New York: Oxford University Press.

REFERENCES

1. Antonova, O.O. (2004). The problem of philosophical and methodological foundations of gender studies. *Abs. diss. cand. philol. scien*. Moscow: Moscow State University named after M.V. Lomonosov.
2. BBC News Russian Service. (2025, May 26). A slap or “just fooling around”? Macron explained the video where his wife pushes his face. *BBC.com*. <https://www.bbc.com/russian/articles/c0lnky2jr92o>.
3. Bektaev, K.B. (1978). *Statistical-informational typology of Turkic text*. Alma-Ata: Science.
4. Cram, D. (1983). The linguistic status of the proverb. *Notebooks of Lexicology*, 43, 53–71.
5. Dubrovin, M.I. (2008). *English and Russian proverbs and sayings in illustrations*. Moscow: Enlightenment.
6. Dundes, A. (1980). *Interpreting folklore*. Bloomington: Indiana University Press.
7. Dundes, A. (1981). On the structure of the proverb. *Proverbium*, 25, 961–973.
8. Dzhusupov, M. (2022). Anthropocentric proverbs as a linguo-contrastive and linguo-methodological problem. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 5(46), 37–52.
9. Gotthardt, H.H., & Varga, M.A. (Eds.). (2014). *Introduction to paremiology: A comprehensive guide to proverb studies*. Berlin: De Gruyter.
10. Guseinov, I.A. (1981). Semantic features and national specificity of English proverbs. *Abs. diss. cand. philol. scien*. Moscow: Moscow State Pedagogical Institute of Foreign Languages named after M.Thorez.
11. Honeck, R. (1997). *A proverb in mind: The cognitive science of proverbial wit and wisdom*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.
12. Jalgashev, Sh. (2025, May 27). “Does your wife hit you?” Macron became a meme in France. *Qalampir.uz*. <https://www.qalampir.uz/news/khotiningiz-sizni-uradimi-makron-frantsiyada-memga-aylandi-119509>.
13. Karamatova, K.M., & Karamatov, H.S. (2000). *Proverbs*. Tashkent: Labour.
14. Karasik, V.I. (2002). *Language circle: Personality, concepts, discourse*. Volgograd: Change.
15. Kirilina, A.V. (2000). On the application of the concept “gender” in Russian-language linguistic description. *Philological Sciences. Scientific Reports of Higher School*, 3, 28–36.
16. Kuusi, M. (1972). *Towards an international type-system of proverbs*. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia.
17. Lakoff, R. (1973). Language and woman's place. *Language in Society*, 2(1), 45–80.

18. Marvin, D.E. (1922). *Antiquity of proverbs*. New York: G.P. Putnam's Sons.
19. Mieder, W. (1993). *Proverbs are never out of season: Popular wisdom in the modern age*. New York: Oxford University Press.
20. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A handbook*. Westport, CT: Greenwood Press.
21. Mieder, W. (2015). *Wise words: Essays on the proverb*. New York: Garland Publishing.
22. Mirzayev, T., Musoqulov, A., & Sarimsoqov, B. (2005). *Uzbek folk proverbs*. Tashkent: East.
23. Norrick, N.R. (1985). *How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs*. Amsterdam: Mouton.
24. Oxford University Press. (n.d.). Proverb. In *Oxford English Dictionary*. Retrieved from https://www.oed.com/dictionary/proverb_n?tab=factsheet#27994812.
25. Polikarpov, A.A. (1998). Cyclical processes in the formation of the lexical system of language: Modeling and experiment. *DSc thes. philol.* Moscow: Moscow State University named after M.V. Lomonosov.
26. Ruzimboev, S., & Ruzmetov, Kh. (2007). *A concise dictionary of folklore terms*. Urgench: Urgench State University.
27. Sarimsoqov, A.V. (1989). *Uzbek folk proverbs*. Tashkent: Science.
28. Selyanina, L.I. (1970). Proverbs of the English language. *Abs. diss. cand. philol. scien.* Moscow: 1st Moscow State Institute of Foreign Languages.
29. Sodikova, M. (1993). *A concise Uzbek-Russian dictionary of proverbs and sayings*. Tashkent: Teacher.
30. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. New York: Oxford University Press.